


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

O‘quv-uslubiy boshqarma
tomonidan ro‘yxatga olindi
№ 2014/11260
2014 yil 20 avgust

Institut Kengashining
№1-sonli qarori bilan
TASDIQLANGAN
(2014 yil 22 avgust)



G‘AZNACHILIK TIZIMIDA NAZORAT

O‘QUV DASTURI

Oliy ta‘limning

Bilim sohasi:	200000	–	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta‘lim sohasi:	230000	–	Iqtisod
Ta‘lim yo‘nalishi:	5231300	–	Pensiya ishi

Fanning o‘quv dasturi Toshkent moliya institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

- D. Toshmuxamedova – Toshkent moliya instituti “G‘aznachilik ishi” kafedrasida katta o‘qituvchisi
Sh. Hamdamov Toshkent moliya instituti “G‘aznachilik ishi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

- A. Norqulov - Toshkent moliya instituti “Moliya” kafedrasida dotsenti, i.f.n.(ichki).
D.Pulatov- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi Moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish va to‘lovlarni amalga oshirish bo‘limi boshlig‘i, dotsent, i.f.n. (tashqi).

Fanning o‘quv dasturi institut Ilmiy-uslubiy Kengashining 2014 yil 22 avgustdagi №1-son majlis bayoni bilan tanlov fani sifatida ma’qullangan

KIRISH

Ushbu dastur moliya tizimi uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashga xizmat qiluvchi fanlardan biriga bag'ishlangan. Unda g'aznachilik tizimida nazoratning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, shuningdek, g'aznachilik tizimida nazoratni shakllari, usullari, amalga oshirilishi mexanizmi, yuridik va moliyaviy majburiyatlarning amalga oshirilishida g'aznachilik nazoratining amal qilishini ta'minlash kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad –“G'aznachilik tizimida nazorat” fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga davlat budjetining g'azna ijrosi jarayonida amalga oshiriladigan nazorat haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning bugungi bosqichida davlat moliya tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari va g'aznachilik tizimida nazoratni amalga oshirish bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi – ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar g'aznachilik va g'aznachilik organlari faoliyatiga, g'aznachilik tizimida nazoratni tashkil etish nazariyasi va amaliyotiga oid bilimga uquvga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar umumnazariy va umumiqtisodiy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda, g'aznachilik faoliyatiga oid qonunchilik borasidagi yangiliklardan, mamlakatda g'aznachilik organlari faoliyati amaliyotidagi va xorijiy davlatlar g'aznachilik tizimida nazoratni tashkil etish amaliyotidagi o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“G'aznachilik tizimida nazorat” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- g'aznachilik tizimida nazoratning mohiyati va zarurligi
- g'aznachilik tizimida nazoratning vazifalari va shakllari;
- g'aznachilik tizimida nazoratni tashkil etish asoslari;
- xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimida nazoratni tashkil etish tajribalari;
- g'aznachilik tizimida davlat budjeti daromadlari ijrosining nazoratini tashkil etish xususiyatlari va vazifalari;
- g'aznachilik tizimida davlat budjeti xarajatlari ijrosining nazoratini tashkil etish xususiyatlari va vazifalari;
- g'aznachilik tizimida nazoratning samarali shakllari haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- g'aznachilik tizimida nazorat faoliyatining rivojlanish qonuniyatlarini;
- g'aznachilik sharoitida davlat budjeti holatini baholash va tahlil qilish uslubiyotini;

- gʻaznachilik tizimida budjet istiqbolini belgilash asoslarini;
- gʻaznachilik tizimida nazoratning budjet jarayonining bosqichlari boʻyicha tashkil etilishi va xususiyatlarini;
- gʻaznachilik tizimida respublika budjeti hamda mahalliy budjetlar oʻrtasidagi yaxlitlik hamda vakolatlar taqsimoti nazoratini;
- markaziy va hududiy gʻaznachilik organlarining nazorat yuzasidan vakolatlari asoslarini;
- Oʻzbekiston Respublikasi gʻaznachilik tizimida nazoratni tashkil etishning huquqiy asoslarini;
- gʻaznachilik tizimida nazoratning rivojlanish strategiyasi va taktikasini;
- gʻaznachilik tizimida nazoratni tashkil etish shakllari va tamoyillarini *bilishi va ulardan foydalana olishi lozim:*
- gʻaznachilik tizimida nazorat faoliyatining rivojlanish qonuniyatlari boʻyicha;
- gʻaznachilik sharoitida davlat budjeti holatini baholash va tahlil qilish uslubi boʻyicha;
- gʻaznachilik tizimida budjet istiqbolini belgilash asoslari boʻyicha;
- gʻaznachilik tizimida nazoratning budjet jarayoni bosqichlari boʻyicha tashkil etilishi va xususiyatlari boʻyicha;
- gʻaznachilik tizimida respublika budjeti hamda mahalliy budjetlar oʻrtasidagi yaxlitlik hamda vakolatlar taqsimoti nazorati boʻyicha;
- markaziy va hududiy gʻaznachilik organlarining nazorat yuzasidan vakolatlari asoslari boʻyicha;
- Oʻzbekiston Respublikasi gʻaznachilik tizimida nazoratni tashkil etishning huquqiy asoslari boʻyicha;
- gʻaznachilik tizimida nazoratning rivojlanish strategiyasi va taktikasi boʻyicha;
- gʻaznachilik tizimida nazoratni tashkil etish shakllari va tamoyillari boʻyicha;
- davlat budjetining gʻazna ijrosi yuzasidan hisobotlarni tuzish va tahlil etish boʻyicha;
- davlat budjetining gʻazna ijrosi yakunlarini hisob-kitob qilish boʻyicha;
- gʻaznachilik tizimida budjetdan mablagʻlar oluvchilar moliyaviy rejalarini ishlab chiqish, budjet meʼyorlarini qoʻllash, rejalarining toʻgʻriligini tekshirish boʻyicha;
- gʻaznachilik tizimida nazoratni tashkil etishda zamonaviy kompyuter texnologiyalardan foydalanish boʻyicha;
- gʻaznachilik tizimida nazorat amaliyotiga oid meʼyoriy-huquqiy hujjatlardan maqsadga muvofiq foydalanish boʻyicha;
- gʻaznachilikda nazorat tizimi rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni oʻtkazish boʻyicha *koʻnikmalarga ega boʻlishi* kerak;
- gʻaznachilik tizimida budjet resurslarini boshqarishni nazorat qilishning asosiy usullari;
- makrodarajada va hududlar miqyosida gʻaznachilik tizimidagi nazoratni tashkil etish xususiyatlari;
- gʻaznachilik tizimida nazoratni tashkil etishning maqsad va vazifalari;

- g‘aznachilik tizimida tasdiqlangan shartnomalarga asosan mablag‘lar harakati mutanosibliigi;
- o‘rta muddatli budjetni tuzishga o‘tish sharoitida g‘aznachilik tizimidagi nazoratni tashkil etish xususiyatlari va muammolari;
- g‘aznachilik tizimida budjet daromadlarini shakllanishi va xarajatlarni mukamallashtirishning kontseptual asoslarida davlatning nazorat tadbirlari;
- g‘aznachilik tizimi sharoitida budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘larining ishlatilishini nazorat qilish asoslari;
- g‘aznachilik tizimi sharoitida nazoratning moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash maqsadidagi samarali usullari;
- g‘aznachilik tizimida nazoratning budjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid vazifalari;
- g‘aznachilik tizimida nazoratning turli darajadagi budjetlarni shakllantirish va taqsimlashning optimal modelining qurilishiga oid tadbirlari yuzasidan tegishli malakalarga ega bo‘lishi kerak.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“G‘aznachilik tizimida nazorat” fani tanlov fani hisoblanadi. Mazkur fanni o‘zlashtirishda o‘quv rejasida rejalashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy (Iqtisodiy nazariya), umumkasbiy (Statistika, Makroiqtisodiyot, Moliyaviy va boshqaruv tahlili, Soliqlar va soliqqa tortish) va ixtisoslik (Moliya, Davlat budjeti, G‘aznachilik) fanlaridan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

O‘zbekiston iqtisodiyotini boshqarishda davlat budjetining g‘aznachilik tizimining tutgan o‘rni beqiyosdir. Ma‘lumki g‘aznachilik tizimida yuridik va moliyaviy majburiyatlarni amalga oshirilishida va to‘lovlarni amalga oshirilishi mexanizmida nazoratni samarali tashkil etilishi davlat moliyaviy resurslarini boshqarilishida ahamiyatlidir. Bu esa g‘aznachilik tizimida nazorat budjet tizimini iqtisodiyotni rivojlantirish va uni samarali boshqarishda zamonaviy bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi.

O‘z navbatida, biznes va boshqaruv faoliyatida ish yuritadigan mutaxassislariga alohida talablar qo‘yilganligi sababli, ushbu fan nazariy fan hisoblanib, iqtisodiyotimizga malakali kadrlarni etkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “G‘aznachilik tizimida nazorat” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma‘ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma‘ruza va amaliy va darslarida mos ravishdagi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. Shuningdek, fanni o‘zlashtirish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalangan holda xududiy

miqyosda budget ijrosiga oid hisob-kitoblarni olib borish bilan bog'liq kompyuter dasturlari bilan tanishadilar. Fanning ba'zi mavzularini yoritishda audio va video texnikadan foydalaniladi.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“G'aznachilik tizimida nazorat” fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (oliy matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, matematik programmalashtirish, informatika va axborot texnologiyalar, iqtisodiy geografiya va ekologiya), umumkasbiy fanlar (iqtisodiy ta'limotlar tarixi, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, menejment va marketing asoslari, milliy va jahon iqtisodiyoti, moliyaviy va boshqaruv hisobi, audit, moliyaviy va boshqaruv tahlili, statistika, moliyaviy menejment, pul, kredit va banklar, soliq va soliqqa tortish, sug'urta ishi, moliya bozori va qimmatli qog'ozlar, investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish) va ixtisoslik (moliya, davlat budjeti, g'aznachilik asoslari) fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Budget mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida joriy qilingan davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimida nazorat ishlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. G'aznachilik organlari budget tashkilotlari tomonidan smetada tasdiqlangan xarajatlar yo'nalishlari bilan ular amalga oshirayotgan to'lovlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashda, tijorat takliflari asosida xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlashda ma'suldirlar.

Shuning uchun g'aznachilik tizimida nazoratga alohida e'tibor qaratiladi. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida davlat moliya tizimidagi islohotlar, ya'ni davlat budjeti g'azna ijrosida nazoratni maqsadga muvofiq amalga oshirilishi budget mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “G'aznachilik tizimida nazorat” fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy mashg'ulot darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. Shuningdek, fanni o'zlashtirish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalangan holda budget ijrosining amalga oshirilishi jarayoni bilan bog'liq kompyuter dasturlari bilan tanishadilar. Fanning ba'zi mavzularini yoritishda audio va video texnikadan foydalaniladi.

ASOSIY QISM

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

G'aznachilik tizimida nazoratning tashkil etilishi. G'aznachilik tizimida nazoratni o'tkazish bo'yicha qarashlar. G'aznachilik tizimida nazorat shakllari. G'aznachilik tizimida nazoratning amalga oshirilishi va uning takomillashtirilishi. G'aznachilik tizimida nazoratni tashkil etish bo'yicha xorij tajribalari. O'zbekiston Respublikasida g'aznachiligida nazoratning tashkil etilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Amaldagi g'aznachilik organlari tomonidan amalga oshirilayotgan nazoratning tahlili, undagi yutuqlar va kamchiliklar va ularning bartaraf etish yo'nalishlari.

G'aznachilik tizimida nazoratning zarurligi, mohiyati

Davlat moliyaviy nazorati tarkibida g'aznachilik tizimidagi nazoratning o'rnini va xususiyatlari. Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimida nazorat: mohiyati, xususiyatlari va vazifalari. G'aznachilik tizimida nazoratni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari. G'aznachilik tizimida nazoratni samarali tashkil etishga oid xorij tajribalari. Sobiq Hamdo'stlik davlatlarida g'aznachilik tizimida nazorat tizimini joriy etish amaliyoti. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi nazorati shakllanishining xususiyatlari va vazifalari. G'aznachilik nazoratini samarali faoliyatini ta'minlash yuzasidan davlat tadbirlari va ular ijrosining ilk yakunlari.

G'aznachilik tizimida nazoratning huquqiy asoslari

G'aznachilik tizimida nazoratning asosiy vazifalari, g'aznachilik tizimida nazorat bo'linmalarining funktsional vazifalari. G'aznachilik tizimida nazoratni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi. O'zbekiston Respublikasi "Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 26 apreldagi 144-sonli qarori, mazmuni va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli "Davlat budjeti g'azna ijrosi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Moliya vazirligi G'aznachiligi to'g'risidagi Nizom, mazmuni va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti g'azna ijrosi Qoidalarining g'aznachilik tizimida nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati.

G'aznachilik tizimi nazoratni tashkil etish shakllari

G'aznachilik nazoratini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari. G'aznachilik nazoratining tamoyillari, mezonlari va omillari. Davlat budjeti g'azna ijrosida nazorat organlari ishtirokining miqyosi va mezonlari. G'aznachilik nazoratining zaruriy elementlari. G'aznachilikning yagona hisobraqami ijrosi yuzasidan nazorat. G'aznachilikning bosh kitobi yuritilishi ustidan nazorat. G'aznachilik organlaridan nazorat. G'aznachilikning axborot tizimidagi mavjud nazorat. G'aznachilikda kassa nazorati. Turli bosqichdagi g'aznachilikning boshqaruv

organlari – G‘aznachilik Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat. G‘aznachilik boshqarmalaridagi nazorat. G‘aznachilikning tuman bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat. G‘aznachilikning yagona hisobraqami faoliyatining nazorati.

G‘aznachilik tizimida narxlar monitoringini amalga oshirilishi ustidan nazorat

G‘aznachilikda narxlarning shakllanishi ustidan nazorat. Tijorat takliflaridagi narxlarning taqqoslanishi. Tovar xom-ashyo birjalari, bozorlardan ma’lumotnomalarini nazorat qilish tartibi. Tijorat takliflari nazorati. Ommaviy axborot vositalari va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlari orqali tijorat takliflari nazorati. Hukumat kafolati bo‘yicha olingan xorijiy kreditlar, Jahon banki guruhi, ETTB, OTB, Xalqaro hamkorlik Yapon banki, “KfW” banki kabi xalqaro va xorijiy moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan xorijiy grantlar mablag‘lari evaziga import qilingan yoki O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan xom-ashyolar, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish bo‘yicha tender savdolarini tashkil qilish mexanizmi yuzasidan nazorat. Tender savdosi nazorati.

G‘aznachilikda davlat xaridini tashkil etilishi

G‘aznachilikda davlat xaridini tashkil etilishining zarurligi, mohiyati va ahamiyati. G‘aznachilikda davlat xaridini tashkil etilishi mexanizmi. G‘aznachilikda davlat xaridlari tizimini tashkil etishning nazariy va tashkiliy asoslari. G‘aznachilikda davlat xaridlari tizimini tashkil etishning xorij tajribalari. Yuridik majburiyatlar operatsiyalarini amalga oshirish tartibi. Davlat xaridini tender savdolari orqali tashkil etish. G‘aznachilikda davlat xaridlari tizimini tashkil etishning xorij tajribalari.

Davlat xaridini tender savdolari orqali tashkil etish

Davlat xaridini tender savdolari orqali tashkil etishning mazmuni, mohiyati va ahamiyati. Tender savdolarini tashkil etilishi tartibi. G‘aznachilik organlari tomonidan tovar etkazib beruvchilar taklif etgan narxlar bilan muqobil narxlarni solishtirish mexanizmi. Davlat xaridini o‘tkazishda tashkil etishda tovar xom-ashyo birjalari ma’lumotlaridan foydalanish. Shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazishda tijorat taklifi va uning narx monitoringini tashkil etishdagi ahamiyati. Tender o‘tkazish tamoyillari. Tenderlarni o‘tkazishda oshkoralikni ta’minlash. Qarorlarni qabul qilishning ob’ektivligi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxlari monitoringi. Davlat xaridini o‘tkazish mexanizmini takomillashtirish.

G‘aznachilik tizimida yuridik majburiyatlarni ro‘yxatga olinishi ustidan nazorat

G‘aznachilik tizimida majburiyatlarni ro‘yxatga olish ustidan nazoratning zarurligi, tartibi va vazifalari. G‘aznachilik tizimida majburiyatlarni hisobga olishni nazorat qilishning omillari. Majburiyat qabul qilish huquqiga ega mas’ul shaxslar faoliyatini nazorat qilish tamoyillari. Xo‘jalik shartnomasi ustidan nazorat. Moliya

organlarida budjetdan mablag' oluvchilar bilan tovar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va ularning xarajatlari to'lovini nazorat qilish tartibi.

G'aznachilik tizimida moliyaviy majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirilishining nazorati

Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelish shartlari va uni tasdiqlovchi hujjatlarni nazorat qilish. Schet fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi qabul qilib olish-topshirish dalolatnomalari, ish haqi qaydnomalarini nazorat qilish tartibi. Moliyaviy majburiyatning G'aznachilik Bosh kitobida qayd qilinishi ustidan nazorat. Moliyaviy majburiyatlarni hisobga olinishini nazorat qilish. Qabul qilingan yuridik majburiyatlar, tasdiqlangan budjet rejasi me'yorida xarajatlarni amalga oshirishni ta'minlash hamda budjet tashkilotlari kreditorlik qarzlarni nazorat qilish. Moliyaviy majburiyatlarning limitini baholash ustidan nazorat. Budjet tashkiloti tasarrufidagi pul mablag'lari miqdori moliya organi tomonidan tasdiqlangan smeta bilan cheklashni nazorat qilish. G'aznachilikda pul mablag'larini samarali boshqarish, moliyaviy majburiyatlarning limitini baholash uchun xarajatlarni amalga oshirish ruxsati (XAOR)ni belgilanishini nazorat qilish. G'aznachilikda moliyaviy majburiyatlarning qabul qilinishi va to'lovlarning amalga oshirilishini nazorat qilish. To'lov arizasi – schet faktura asosida tayyorlanadigan buxgalteriya hujjati, budjet tashkilotining kreditorga ma'lum summani to'lash uchun g'aznachilikka taqdim etiladigan topshiriqnoma nazorati.

G'aznachilik tizimida nazoratning xorij tajribalari

G'aznachilik tizimida nazorat faoliyatini tashkil etish bo'yicha xorij tajribalari. AQShda g'aznachilik tizimida nazorat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Yaponiya g'aznachilik bo'limi faoliyati. Frantsiyada g'aznachilik tizimida nazorat faoliyati xususiyatlari. Avstraliya g'aznachilik departamenti nazorat faoliyati. Rossiya Moliya vazirligi g'aznachiligi nazoratini tashkil etilishi xususiyatlari. Qozog'iston Respublikasida g'aznachilik faoliyati nazoratini tashkil etilishi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar mahalliy budjetlar tizimi faoliyatini to'liq o'rganadilar. Amaliy mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari:

1. G'aznachilik tizimida nazoratning zarurligi, mohiyati
2. G'aznachilik tizimida nazoratning huquqiy asoslari
3. G'aznachilik tizimi nazoratni tashkil etish shakllari
4. G'aznachilik tizimida narxlar monitoringini amalga oshirilishi ustidan nazorat
5. G'aznachilikda davlat xaridini tashkil etilishi
6. Davlat xaridini tender savdolari orqali tashkil etish
7. G'aznachilik tizimida yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olinishi ustidan nazorat
8. G'aznachilik tizimida moliyaviy majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirilishining nazorati

9. G‘aznachilik tizimida nazoratning xorij tajribalari

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma‘ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy masalalar, ishchi o‘yinlar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha talabalar bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash, tarqatma materiallar asosida bilimlarni o‘zlashtirish, ilmiy maqolalar va tezislardan foydalanish, mavzular bo‘yicha taqdimotlar va ko‘rgazmali qurollar tayyorlash, qonun, qaror, me‘yoriy-huquqiy xujjatlardan foylanish va boshqalar tavsiya etiladi.

Mustaqil ta‘limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta‘lim talabalar uchun majburiy o‘quv mashg‘uloti hisoblanadi va rejali xususiyatga ega. Mustaqil ta‘limning mavzulari talabalar uchun mustaqil o‘rganishlari shart bo‘lgan ma‘ruzalar va amaliy mashg‘ulotlardan tashkil topgan. U talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va kengaytirishga, o‘qitilayotgan va o‘tilgan mavzularni kengroq va chuqurroq o‘rganishga hamda dunyoqarashini yanada kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek, mustaqil ta‘limga mo‘ljallangan topshiriqlar (mavzular) ma‘ruzalar mavzulari, amaliy, bitiruv malakaviy ishlarini yozishga tayyorgarlik ko‘rishga qaratilgan. Bundan tashqari, talabalar ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirishlari natijasida, referat yoki ilmiy maqolalar tayyorlashlari mumkin, hamda ilmiy amaliy konferentsiyalarda ilmiy ma‘ruzalar qilishlari mumkin.

Mustaqil ta‘limni tashkil etishning shakli bo‘lib, qo‘yidagilar hisoblanadi: ma‘lumotlarni jadvallarda aks ettirish, ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish, grafiklarda aks ettirish, slaydlar ko‘rinishida belgilash, ko‘rgazmali qurollarda aks ettirish va boshqalar.

Mustaqil ta‘limni tashkil etishning mazmuni bajariladigan mavzular bo‘yicha savolnomalar tuzish, qo‘yilgan savollarga keng adabiyotlardan foydalangan holda yozma tarzda javob berish, qonun, qaror, me‘yoriy xujjatlardan foydalanish, har bir mavzu bo‘yicha muammoli masalalarni hal qilish yo‘llarini bayon qilish, tavsiyalar berish hamda takliflar ishlab chiqish.

Mustaqil ta‘lim bo‘yicha tavsiya etilgan mavzular:

1. O‘zbekiston Respublikasida g‘aznachilik tizimida amalga oshiriladigan nazoratning mohiyati
2. O‘zbekiston Respublikasida g‘aznachiligida amalga oshiriladigan nazoratning tartibga solinishi
3. G‘aznachilikda yuridik majburiyatlarni ro‘yxatga olinishini nazorat qilishni takomillashtirish
4. Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatilishi ustidan nazorat hamda uning barqarorlashtirilishi
5. G‘aznachilik sharoitida davlat kafolatlarini ta‘minlash ustidan nazoratni tashkil etish

6. G‘aznachilik tizimida to‘lovlarni amalga oshirilishini nazorat qilishni kuchaytirish
7. G‘aznachilikda narxlar monitoringi ustidan nazoratni tashkil etish
8. G‘aznachilikda budjet tashkilotlari smetalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish ustidan nazoratni tashkil qilish
9. G‘aznachilik operatsiyalarining nazorati
10. G‘aznachilik operatsiyalari nazoratini amalga oshirishga qo‘yiladigan talablar

Dasturning informatsion-uslubiy ta‘minoti

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy (xususan, interfaol) metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata‘lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron-didaktik) texnologiyalari va zamonaviy komp’yuter texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Xaydarov M., Suvonqulov A., Sugirbaev B., Nurmatov B. “Davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi”. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”.2010y.
2. Qo‘chqorov T., Xaydarov M. “Davlat budjeti g‘azna ijrosining axborot tizimi”. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”.2010y.
3. Qosimova G. Davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008. -372 bet.
4. Qosimova G. G‘aznachilik faoliyatini tashkil etish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya. 2005, -248 bet.
5. Qasimova G.A. G‘aznachilik . O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”. 2013. - 487 b.
6. Xaydarov M., Suvonqulov A., Sugirbaev B., Nurmatov B. “Davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi”. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”.2010y.
7. Qo‘chqorov T., Xaydarov M. “Davlat budjeti g‘azna ijrosining axborot tizimi”. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”.2010y.
8. Qosimova G. Davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008. -372 bet.
9. Qosimova G. G‘aznachilik faoliyatini tashkil etish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya. 2005, 248bet.
10. Qasimova G.A. G‘aznachilik . O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”. 2013. -487 b.
11. Кучкаров Д.Ж., Принципы организации казначейского исполнения Государственного бюджета Республики Узбекистан. Уч.пос.-Т.:Мир экономики и права. 2005, 138с.

12. Haydarov M., Suvonqulov A., Sugirbaev B., Nurmatov B. Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi". O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2010. -235 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

13. Davlat budjetining g'azna ijrosi normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. - T.: "KO'HI-NUR", 2006. – 257 b.

14. Вахабов А.В., Срождиддинова З.Х. Государственный бюджет: Учебник. Т. "Иқтисод-молия", 2006, 625с.

15. Vahobov A., Qosimova G., Jamolov X. Budjet-soliq siyosati yaxlitligi: O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005, 264bet

16. Burxonov U. Davlat xaridi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010.

17. Davlat budjetining g'azna ijrosi normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. - T.: "KO'HI-NUR", 2006. - 257 s

18. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar: statistik to'plam. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011.

19. Internet saytlari:

www.mf.uz

www.gov.uz

www.lex.uz

www.stat.uz

www.budget.ru

www.undp.uz

www.publicfinance.uz